

## XALQ MAQOLLARIDAN FANLARARO FOYDALANISH INTEGRATSIYASI

**Shodiyev Faxriddin**

*Uzbekistan-Finland PI Head of the Department of Theory of  
Primary Education, associate professor  
Shodiyevbt@gmail.com*

Ilm va iste'dodli xalq vakillari global dunyoning yangi ufqlarini ochmoqda. Talantli yosh kadrlarni esa bilim maskanlari yetishtirib beradi. Burch hamda mas'uliyat ana shu ta'lim maskanlarining sifatli mazmuniga zeb bermog'i shartdir. Maorifning barcha bo'g'inidagi vakillari ham yonib, ham yondirib ter to'kishlari global dunyoga keng yo'l ochadi. "Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or vakillari bo'lishlari kerak". Shunga ko'ra, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi talablariga binoan, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha har bir o'quvchining ruhiy, ahloqiy holatini bilish, yakka tartibda o'quvchilar bilan va guruh bilan ishlay olish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rejalashtira olish, uni tashkil etish metodikasini egallash, o'quvchilar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish, diniy ekstremizmga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi shart. Shuningdek, ona tili, matematika, bolalar adabiyoti va folklor, xusnixat, mehnat, tabiatshunoslik va tarbiyaviy ishlar metodikasi fanlaridan bilimlarni egallash, fanlarning dolzarb masalalarini seza olish va o'quvchilarga yetkaza olishi, bu yo'lda an'anaviy va noan'anaviy metodlar, ilg'or ta'lim texnologiyalarni fan va mavzularni o'rgatish vaqtida tanlay olish, o'z fanida metod va texnologiyalarni ijodiy qo'llay olish, faktlarni tahlil qilish, umumlashtirish, shu asosda xulosa chiqara olishi; shuningdek, jismoniy tarbiya va salomatlikni mustahkamlashning mustaqil, metodik jihatdan to'g'ri vositalarini egallash, to'laqonli ijtimoiy va kasbiy faoliyatni ta'minlash uchun jismoniy tayyorgarlikning zarur darajasiga erishishga tayyor bo'lishi kerak. Bu talablarni to'la egallashi va ularni amalda qo'llashi uchun ma'naviy aql kuchi – xalq maqollari bilan ham qurollanishi zarur. Zero, xalq maqollari barcha fanlarning tamal toshida bor. Shuning uchun ham xalq maqollari Milliy kamolotning kalitidir. Shuningdek, har bir sohada bo'lganidek, xalq og'zaki ijodining yuragi bu – xalq maqollaridir. Ana shu «kalit» va «yurak» bilan Milliy g'oyani ona tili, odobnoma, o'qish, mehnat, jismoniy tarbiya fanlarida uyg'un tarzda targ'ib etish ulkan samaralar beradi. Chunki folklor, xususan, ijodkor va bunyodkor xalq qalbidan otilib chiqqan maqollar ezgulikning chirog'i, ma'naviyatning bulog'idir. Ana shu tub tomiri insoniyat tongotariga tutash otalar so'zi – maqollarda xalqning ma'naviy bo'y-basti yaqqol ko'zga tashlanadi, ular orqali olam va odamga, tabiat va jamiyatga, yorug' yuzlikka hamda tarixiy o'zlikka ongli munosabat boshlanadi. Shunga ko'ra, biz muqaddas Vatanni, ona tuproqni, ozod va obod yurtni jondan aziz tutib, o'z-o'zimizga «Ona yurtning – oltin beshiging» deb uni imkon qadar ardoqlab yuramiz. Buni teran anglagan I. Karimov shunday degan edi: «Barchamizga ma'lumki, inson o'zligini asragani, nasl-nasabini chuqurroq bilgani sari yuragida Vatanga muhabbat tuyg'usi ildiz otib, ulg'aya boradi. Bu ildiz qanchalik teran bo'lsa, tug'ilib o'sgan yurtga muhabbat ham shu qadar yuksak bo'ladi. Albatta, jahon keng, dunyoda mamlakat

ko'p, lekin bu olamda betakror ona yurtimiz, O'zbekistonimiz yakayu yagona. Bu go'zal yurt, bu muqaddas zamin, faqat bizga atalgan. Mana shu ulug' tuyg'u har birimizning dilimizga jo bo'lishini, hayotimiz mazmuniga aylanishini istardim. Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, tomirida milliy g'urur, Vatanga ishq jo'sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi. Biz shunday ma'naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko'zimizni, qalbimizni yashnatib tursin(3-90)» deb barchamizni mangu hurlikka va metin birlikka, kuch-g'ayratu bunyodkorlikka, qalban yonishga, aqlan yuksalishga chorlaydi. El aro esa «Kuch - birlikda», «Birlashgan o'zar – birlashmagan to'zar» degan otalar so'zi porlaydi. Darhaqiqat, ona yurt va uning mohiyati to'g'risidagi qaysi bir xalq maqolini olmang, u sizni hushyorlikka, ogohlikka, ezgulikka, tinchlikka, yaratuvchanlikka, do'stlikka, muqaddas tuproqni avaylashga da'vat etadi. Bu kabi ma'nolari ummon otalar so'zini o'qir ekansiz, ona yurtga tutash o'tli yuragingiz jimirlab-jimirlab ketadi: «Vataning tinch – sen tinch. Vatansiz inson – kuysiz bulbul. Yurt bilan kelgan to'y – bayram. Yurting omon – o'zing omon. Yurt qo'risang – o'zarsan, qo'rimsang – to'zarsan. Yurt puflasa, shamol turadi». Ushbu qisman keltirilgan maqollar ham o'tli dalilki, otalar so'zi ozodlik va obodlik, ezgulik hamda shodlik kabi minglab fazilatlarining ibratli bayonidir.

Barchamizga ayonki, Milliy g'oyaning ildizi – xalq donishmandligi-yu, uning salohiyatli tafakkurida, ya'ni, milliy qadriyatlarda namoyondir. Shuning uchun ham: «Milliy qadriyatlarga sodiqlik istiqloq g'oyasining tayanchidir... Bu g'oyani amalga oshirish, avvalo, har tomonlama bilimli, ma'naviy, jismoniy va aqliy yetuk insonlarni voyaga yetkazishga bog'liq. Sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish ham ana shu vazifalar sirasiga kiradi».

Demak, oliy maqsad, «sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash» ekan, bu yo'lda Vatan haqidagi otalar so'ziga amal qilish ham qarz, ham farzdir. Chunki tinch va obod yurtda, fuqarolari erkin Vatandagina yuqorida ta'kidlangan saviyadagi avlodlarning parvozini ko'ramiz. Aks olda: «Vatanning vayronasi – umrning g'amxonasi»ga aylanishi mumkin. Bunday bo'lishdan Yaratganning o'zi asrasin. Payg'ambarimiz (s.a.v.) uqtirganlaridek: «Vatanni sevish -imondandir!» Xalq aytganidek: Ona yurtning OMON bo'lsa, rangu ro'ying somon bo'lmas! Darhaqiqat, bizdan uzoq bo'lsin somonligu yomonlik, ona yurtda mangu bo'lsin omonlik. Zotan, ona yurtda otalar so'ziga amal qilgan shon yutadi, xalq maqollariga zid borgan g'aflatda qon yutadi. El nigohi – ko'ngil ko'zidir, xalq tutumi – otalar so'zidir. Ana shu maqollardan ona tili va mehnat hamda jismoniy tarbiya darslarida o'zaro uyg'un tarzda foydalanish notiqligu mehnatsevarlik, chechanligu salomatlilik kabi ezgu fazilatlarini barkamol yosh avlod ongu shuurida shakllantirishda g'oyatda qo'l keladi: So'zlay-so'zlay so'zchil bo'lasan, ishlay-ishlay ko'zchil bo'lasan. Chiniqqanga gard yuqmas. Tilingni tiyishni ham so'zingni deyishni ham bil. Ter to'kkanga ming tillo, Gap sotganga hazor balo. Mashq qilgan toblanar, Hosil kuzda qoplanar. Bu kabi xalq aytimlarini – maqollarni istagancha davom ettirish mumkin. Biz barcha boshlang'ich sinf fanlari aro maqollardan o'rinli va samarali foydalanib, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti, maqsadi, vazifasi va ilmiy negizlarini teran tushuntirishimiz, boshqa fanlar bilan aloqasini mustahkamlashimiz, O'zbekiston Respublikasi hukumatining jismoniy madaniyat va sport bo'yicha qabul qilgan hujjatlarining ahamiyatini ochib berishimiz,

boshlang'ich sinf mehnat ta'limi va uni o'qitish metodikasining maqsadi va vazifasi, mazmuni, shakl va metodlari, o'quvchilarni mehnat faoliyatiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishimiz, shuningdek, boshqa fanlarning tub maqsadlarini targ'ib etishimiz asosiy integratsion burchimizdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. -Toshkent, O'zbekiston, 2022-yil. 416-bet.
2. Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. –T.: O'zbekiston,2018, 508-b.
3. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston,2017, 488-b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent, Ma'naviyat, 2008.
5. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent, Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
6. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent, Sharq nashriyoti, 2005.
7. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent, Yangi asr avlodi, 2001.
8. Husanboyeva Q., Shodiyev F., Hazratqulov M. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi.-Samarqand, SamDU nashri,2019, 390-b.
9. Umumiy o'rta ta'limning DTS va o'quv dasturi(1-4-sinf). –T.: 2017-yil.
10. Shodiyev, F. (2023). ALISHER NAVOIY TIMSOLINI ERKIN VOHIDOV IJODIDAGI TALQINI TADQIQI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 522-524.
11. Tshaevich, S. F. (2022). The Role of Children's Literature in the Formation of Professional Competence. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 3(12), 235-240.
12. Norkobilovna, J. S., Sadikovich, K. N., Tshaevich, S. F., Gulmurodovna, S. L., & AkramIkromovich, S. (2021). Cultural and Historical Prerequisites for the Development of the Innovative Potential of the Subject of Creativity. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 2982-2986.
13. Fakhridin, S., Abdimurat, N., Gulbakhor, R., & Oybek, G. (2023). Interpretation of History and Historical Truth in the Samples of Alisher Navoi's Hasbi Hazal. *Journal of Advanced Zoology*, 44.
14. Shodiyev, F., & Bahramova, M. (2023, June). Technology For Conducting Interactive Lessons. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 16-18).
15. Tshaevich, S. F. Interactive Technology in Primary Education. *International Journal on Integrated Education*, 3(10), 76-77.
16. Shodiyev, F., Saidullayeva, S., Abdullayeva, Z., & Tirkasheva, M. (2023). Children's Literature in the Formation of Professional Competence Position. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(6), 73-78.

17. Shodiyev, F., Kiyamova, S., Karshyeva, G., & Muradullayeva, D. (2023). The Technology of Preparation of the Future Primary School Teacher in the Global Process. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 4(6), 108-111.
18. Teshaeovich, S. F. (2021). Essence of children's literature in the formation of professional competence.
19. Teshaeovich, S. F. (2021). Alisher navoi's interpretation of global ideas on human perfection. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(11), 542-550.
20. Shodiyev, F. (2024). TRAINING OF FUTURE INNOVATIVE AND CREATIVE THINKING PRIMARY SCHOOL TEACHER. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 4(37), 189-195.
21. Drobchenko, N. V., & Fakhridinov, M. F. (2022). USING THE COREL DROW COMPUTER PROGRAM TO DEVELOP STUDENTS'CREATIVE ABILITIES THROUGH DRAWING. Retrieved from <https://www.digitalfashionsociety.org/index.php/conference/article/view/114>
22. Fakhridinov, M. Convenience of working with AutoCAD Software in Drawing and Drawing Geometry. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.
23. Fakhridinov, M. The impact of modern technology on education. *Fan va ta'lim integratsiyasi jurnali*, 165-170.
24. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). CHIZMACHILIK FANI ORQALI TALABALARNING IJODKORLIK QOBILİYATLARINI O'STIRISH. *INNOVATIVE ACHIEVEMENTS IN SCIENCE 2022*, 2(23), 41-44. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/rus/article/view/8899>
25. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). DUNYO TA'LIM USLUBLARIDAGI SARA DURDONALAR... *Научный Фокус*, 1(7), 190-193. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/12408>
26. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). KOMPYUTER VA UNING GLOBAL TA'LIMDAGI KREATIV O'RNI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 514-521. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3626>
27. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANLARIGA QO'YILADIGAN TALABLARNING BIR-BIRIDAN FARQLANISHI. *Научный Фокус*, 1(7), 46-52. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/12334>
28. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). XALQARO TA'LIM TIZIMIDA TEXNOLOGIYANING O'ZIGA XOSLIGI. *PROSPECTS AND MAIN TRENDS IN MODERN SCIENCE*, 1(6), 56-59. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/spa/article/view/8866>
29. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). Art and Architecture of Europe. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN*, 5(1), 16-18. Retrieved from <https://cajad.centralasianstudies.org/index.php/CAJAD/article/view/474>
30. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). CHIZMACHILIK FANI SIR-ASRORLARINI O'QUVCHILARNING ONGIGA YETKAZISHNING ZAMONAVIY YECHIMLARI.

---

Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 142-148. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/15021>

31. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS IN THE SPHERE OF DRAWING DETAILS: ENHANCING CREATIVITY AND PRECISION. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 4(37), 196-199. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/usa/article/view/11066>

32. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). COMPUTER GRAPHICS: EXPLORING COMPUTER GRAPHICS IN AREAS DRAWING AND ARTS. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(19), 43-46. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/15000>

33. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). EXPLORING THE SPECIFIC INNOVATIONS OF COMPUTER GRAPHICS IN DRAWING SCIENCE. Научный Фокус, 1(10), 56-58. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/sf/article/view/14785>

34. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). FIN TA'LIM TIZIMINING GLOBAL O'QITISHDA TUTGAN O'RNI. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 3(26), 152-155. Retrieved from <https://interonconf.org/index.php/idre/article/view/12039>